

## SHOLIDAN YUQORI VA SIFATLI HOSIL YETISHTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Tajiyev Zokirjon Rajabovich q.x.f.n., dotsent, UrDU.

Yo‘ldashev Ko‘palboy Razzaqovich b.f.f.d. (PhD), UrDU.

Amanboyeva Gulzoda Maxmudjon qizi biologiya yo‘nalishi 1- kurs magistri,  
UrDU.

**Kirish.** Bugungi kunda Yer yuzida aholi sonining ortishi, iqtisodiyot rivoji xisobiga tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi barcha ekinlar, shu jumladan, sholini yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda sholidan yuqori hosil olish, aholining guruch mahsulotiga bo‘lgan talabini qondirish va import qilinayotgan miqdorini kamaytirib valyuta tejash maqsadida tuproq-iqlim sharoitlariga chidamli, sifatli don ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, yuqori hosil beradigan navlarni joylashtirish, ularni yetishtirishda yuqori samarali resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, o‘ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xorazm viloyati keskin kontenental murakkab iqlim sharoitiga ega, suvni sho‘rlanish darajasi o‘ta kuchli. Bu esa qishloq xo‘jaligi hamda chorvachilikning turli soxalarida qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining asosiy qismi sug‘orilib ekiladi. Shuning uchun ham viloyatning yillik suv sarfi o‘ta yuqoridir.

Shundan kelib chiqib suv sarfini kamaytirish maqsadida sholichilikda viloyat sharoitiga mos suv tejamkor texnologiyalarni joriy qilish va takomillashtirish zarur.

**Adabiyotlar tahlili.** P.Toreshov, A.Kdirbayev, A.Pirniyazovlarning takidlashlaricha Qopaqalpog‘iston Pespublikasi tuproq-iqlim sharoitida yaratilgan ertapishar Canam sholi navini asosiy ekin sifatida urug‘idan sepib ekib o‘rganilganda o‘suv davri 90-95 kun, suv sarfi o‘suv davri davomida har gektariga 16-18 ming m<sup>3</sup> hamda don hosildorligi 40-45 s/ga ni tashkil etsa, takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida ekib olib bopgan ilmiy tajribalarida xuddi shu navning suv sarfi ham gektaridan 4-7 ming m<sup>3</sup> ga tejalgan. Hosildorlik esa gektaridan o‘rtacha 45-50 sentnerni tashkil etib, hosildorlikni 4-5 s/ga oshiradi [1].

Campbel B.M, Beare D. J., Bennett Ye.M., Hall-Spencer J.M., Ingram J.S.I., Jaramillo F. Hap qanday sholiga asoslangan rivojlanayotgan iqtisodiyotda sug‘orish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini oshirishning asosiy shartidir. Qishloq xo‘jaligi sayyoradagi chuchuk suv zaxirasining -70% dan foydalanadi, shundan 40% sholi yetishtirish uchun ishlatiladi. Insoniyatning yarmi uchun asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo‘lgan 3 milliarddan ortiq kishi asosiy tirikchilik manbai sifatida ushbu ekinga tayanadi. Shuning uchun sholi ishlab chiqarishni ko‘paytirish va uni kampoq suv bilan yetishtirish yo‘llarini izlash global oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun muhim ahamiyatga ega [2].

**Natija va munozara.** Xorazm viloyati sharoitida olib borilgan tajribalarda Sholi urug‘ini ekishda Class traktoriga o‘rnatilgan Sapira-7 DS 300 Lemken markali selkadan foydalanildi. Tajriba kuzatuv ishlari asosan lazurniy navida olib borildi.

Tajribaning birinch nazorat variantda odatdagi sharoitda sholining rivojlanish fazalaridan kelib chiqib suv berib borildi. Sholining o‘shib-rivojlanish davri 3 ta fazaga bo‘linadi, 1-vegetativ faza, 2-reproduktiv faza, 3-pishib yetilish fazasi. O‘z navbatida har bir faza 2 ta davrdan iborat. Vegetatsiya fazasi o‘shish va tuplanish, reproduktiv faza naychalash va gullash, pishib yetilish fazasi sut pishish va to‘la pishish davrlaridan iborat. Har 3 ta fazaning davomiyligi ma‘lum kunlarni o‘z ichiga oladi. Bunda o‘shish davri 35 kun, tuplanish davri 30 kun, naychalash davri 20 kun, gullash davri 15 kun, sut pishish davri 15 kun va to‘la pishish davri 15 kunni tashkil qiladi. Sholining umumiy vegetatsiyasi uchun 128-132 kun talab qilinib, har bir fazada suvga ehtiyoj turlicha bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib birinchi variant, ya‘ni nazorat variantida vegetatsiya fazasining o‘shish davrida gektariga 5200 m<sup>3</sup>/ga, tuplanish davrida 4500 m<sup>3</sup>/ga jami 9700 m<sup>3</sup>/ga suv berildi, reproduktiv fazaning naychalash davrida 3900 m<sup>3</sup>/ga, gullash davrida 3600 m<sup>3</sup>/ga, jami 7500 m<sup>3</sup>/ga, pishib etilish fazasining sut pishish davrida 3200 m<sup>3</sup>/ga, to‘la pishish davrida esa 2000 m<sup>3</sup>/ga jami 5200 m<sup>3</sup>/ga suv berildi. Bu variantda tajriba oxirida sholi pishib yetilgandan keyin sarflangan suv 22400 m<sup>3</sup>/ga ni va hosildorlik 72 s/ga tashkil qildi.

Tajribaning ikkinchi variantida sholini 20 kun suvsiz parvarish qilindi. Bunda vegetatsiya fazasining o‘shish davrida 2350 m<sup>3</sup>/ga, tuplanish davrida 4500 m<sup>3</sup>/ga va bu fazada jami 6850 m<sup>3</sup>/ga suv berildi. Reprodukativ fazaning naychalash davrida 3900 m<sup>3</sup>/ga, gullash davrida 3600 m<sup>3</sup>/ga suv, jami bu fazada 7500 m<sup>3</sup>/ga suv



sarflandi. Pishib etilish fazasining sut pishish davrida 3200 m<sup>3</sup>/ga, to‘la pishish davrida 2000 m<sup>3</sup>/ga suv, jami pishib yetilish fazasi uchun 19550 m<sup>3</sup>/ga suv sarflandi.

Bu variantda umumiy vegetatsiya davri uchun 195500 m<sup>3</sup>/ga suv sarflandi va suv sarfi hisobiga 2850 m<sup>3</sup>/ga ga tejalib, hosildorlik 84 s/ga tashkil qildi.

Tajribaning uchinchi variantida sholi dalasi 30 kun suvsiz qo‘yib ilmiy tadqiqotlar davom ettirildi. Bunda vegetatsiya fazasining o‘shish davrida 1150 m<sup>3</sup>/ga suv, tuplanish davrida 4500 m<sup>3</sup>/ga suv, jami bu fazada 5650 m<sup>3</sup>/ga suv berildi. Reproduktiv fazaning naychalash davrida 3900 m<sup>3</sup>/ga suv, gullash davrida 3600 m<sup>3</sup>/ga suv, jami bu davrda 7500 m<sup>3</sup>/ga suv sarflandi. Pishib yetilish fazasining sut pishish davrida 3200 m<sup>3</sup>/ga suv, to‘la pishish davrida 2000 m<sup>3</sup>/ga suv, jami pishib yetilish fazasi uchun 5200 m<sup>3</sup>/ga suv sarflandi. Bu variantda ham umumiy vegetatsiya davri uchun 18350 m<sup>3</sup>/ga suv sarflanib, hosildorlik 79 s/ga ni tashkil qildi.

**Xulosa.** Bu ilmiy tadqiqot ishida yillik sarflangan suv kamayib, 2850 m<sup>3</sup>/ga tejalib yuqori hosil olinganligi ilmiy asoslangan. Bundan kelib chiqib suv resurslari tanqis bo‘layotgan hozirgi davrda, sholichilikga ixtisoslashgan klaster va fermer-dexqon xo‘jaliklariga yuqoridagi tejamkor suv texnologiyalari asosida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalarini joriy qilish tavsiya qilinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toreshov P., Kdirbayev. A., Pirniyazov. A., Erta pishar Canam navini suv sapfi //Agpoilm- O‘zb q/x №3 (7) 2008 yil B.14-15.
2. Campbel B.M, Beare D.J., Bennett Ye.M., Hall-Spencer, J.M., Ingram, J.S.I., Jaramillo F., yet al. (2017 yil). Agriculture production as a major driver of the //Yearth system yexceeding planetary boundaries. Yeol. Soc. 22:8.doi: 10.5751/YeS-09595-220408 P.70-72.

Research Science and  
Innovation House

